



QIZIL KITOBGA KIRITILGAN HAYVONLAR HAQIDA

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti

Tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Alimardonova Mo'tabar Xolmo'minovna

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti

"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Yaxshiyev Dilxush Otabek o'g'li.

Tel: +998912259402

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qizil kitobga kiritilgan hayvonlarning turli jihatları, ularning xatti-harakatlari, yashash muhitlari va ularni saqlash zarurati haqida batafsil ma'lumot berilgan. Qizil kitobga kiritish sabablari, bu hayvonlarning ekosistemadagi ro'li va inson faoliyatining ularni qanday ta'sir qilishi ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Qizil kitob yo'qolib ketish xavfi, hayvonlar turlari, ekosistema, saqlash va himoya, inson faoliyati.

Annotation. This article provides detailed information on various aspects of animals included in the Red Book, their actions, habits and necessities of keeping them. The reasons for the Red Book are also discussed how the animals in the ecosystem and human activity affect them.

Keywords: The risk of disappearing red book, animal species, ecosystem, storage and protection, human activities.

Аннотация. В этой статье предоставлена подробная информация о различных аспектах животных, включенных в Красную книгу, их действия, привычки и потребности их поддержания. Причины красной книги также обсуждаются, как животные в экосистеме и человеческой деятельности влияют на них.



***Ключевые слова:** риск исчезновения красной книги, видов животных, экосистемы, хранения и защиты, деятельности человека.*

Kirish qismi

"Qizil Kitob" – bu noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlar, o‘simliklar va qushlarning ro‘yxati bo‘lib, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida qabul qilingan. O‘zbekistonda ham "O‘zbekiston Respublikasining Qizil Kitobi" muhim ekologik hujjat hisoblanadi. Bu kitobda asosan yo‘qolish xavfi ostida bo‘lgan hayvonlar va o‘simliklar keltirilgan. Qizil Kitobga kiritilgan ba’zi hayvonlar, ularning tarqalishi, xavf ostida bo‘lish sabablari va himoya choralari haqida so‘z yuritamiz ushbu maqolada. Ko‘plab hayvonlarning o‘lkamizdan yo‘qolib ketishi oqibatida hayvonot olamiga juda katta salbiy ta’sir doirasida qolmoqda. Hayvonlarning turlari ularning ma’lum bir joyda yashash muhiti, xatti-harakatlari, to‘g‘risida va ekotizimdagi ahamiyati haqida, hayvonot olamini xavf ostidan holi etish maqsadida ko‘plab hujjatlar imzolandi.

1. Qizil kitobga kiritilgan hayvonlarning xususiyatlari. Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar odatda quyidagi sabablarga ko‘ra xavf ostida bo‘ladi:

Yashash joylarining yo‘qolishi o‘rmonlarning kesilishi, qurishi natijasida ko‘plab hayvonlar, yashash joylarini yo‘qotishmoqda.

Brakonerlik va noqonuniy ovlash hayvonlarni masalan ayrim hayvonlarning teri, suyak uchun ovlash hayvonot dunyosining yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

Iqlim o‘zgarishi haqida masalan qutb hayvonlari uchun muzliklarning erishini olishimiz mumkin.

Inson faoliyatining salbiy ta’siri ham juda ko‘p ko‘rishimiz mumkun. Masalan birgina sanoatni oladigan bo‘lsak undan chiqadigan turli xildagi chiqindilar, atrof-muhitni ifloslanishiga olib kelmoqda. Hayvonlarning ko‘plab turlari kamayib ketmoqda. Misol tariqasida. Amur yo‘lbarsi – dunyoda 500 tagina qolgan, asosan Rossiya va Xitoyda yashaydi. Amur yo‘lbarslarining asosiy xususiyatlari haqida. Ular katta mo‘ylovlariga ega bo‘lib, qalin va yumshoq jun bilan o‘ralgan. Ular asosan sharqiy Osiyo, xususan Rossiyaning zarbli hududlarida va Shimoliy Xitoyda yashaydi. Ovqatlanishi ular yirtqichlar bo‘lib, tog‘li va o‘rmonli hududlarda yashab,



asosan keng joylarda ov qiladi. Oq ayiq – Arktika muzliklari erib borayotgani tufayli yashash joyi qisqarmoqda. Yuqumli kasalliklar va yovvoyi hayvonlarning raqobati ham ayiq sonining kamayishiga olib kelishi mumkin. Markaziy Osiyo qoploni – Oʻrta Osiyo togʻlarida tarqalgan, lekin brakonerlik tufayli soni kamayib bormoqda.

2. Hayvonlarning ekotizimdagi roli va ahamiyati

Har bir tur ekotizimda muhim rol oʻynaydi. Masalan: Yirtqich hayvonlardan yoʻlbars, burgutlarni oladigan boʻlsak ular oʻsimlikxoʻr hayvonlar sonini tartibga solib, tabiat muvozanatini saqlaydi. Toʻqay hayvonlaridan fil, karkidon – oʻsimliklarni tarqatib, oʻrmonlarni yangilashga yordam beradi. Suv ekotizimi vakillari delfin, baʼzi baliqlar – suv resurslarini tozalashda muhim roʻl oʻynaydi. Masalan Dengiz ilon baliq haqida bu noyob baliq turi qizil roʻyxatda koʻrsatilgan. Ularning asosiy muammosi atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy yashash joylarining yoʻqolishidir. Agar bu hayvonlar yoʻqolib ketsa, tabiat zanjirining bir qancha boʻgʻinlari buziladi, bu esa butun ekotizimga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

3. Hayvonlarni muhofaza qilish boʻyicha choralar.

Qizil kitobga kiritilgan turlarni saqlab qolish uchun quyidagi choralar koʻrilmoqda: Qoʻriqxonalar va milliy bogʻlar tashkil etish noyob hayvonlar uchun himoyalangan hududlar yaratish. Qatʼiy qonunlar va jazolar – brakonerlikni qonuniy jihatdan taʼqiqlash va qattiq jazolash ishlari oʻlkamizda olib borilmoqda. Xalqaro hamkorlik CITES, IUCN kabi tashkilotlar orqali global himoya dasturlarini amalga oshirilmoqda.

Xulosa

Qizil kitobda keltirilgan hayvonlarni muhofaza qilish uchun koʻplab xalqaro tashkilotlar va davlatlar harakat qilmoqda. Ularning saʼy-harakatlari natijasida, ayrim turdagi hayvonlar soni oshayotganini koʻrishimiz mumkin.

Qizil kitobga kiritilgan hayvonlarni saqlab qolish nafaqat biologik xilma-xillik uchun, balki butun insoniyat uchun muhim vazifa hisoblanadi. Har birimiz oʻz hayotimizda ekologik muhit va barqarorlik tamoyillariga rioya qilish orqali bu borada oʻz hissamizni qoʻsha olamiz.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Qizil Kitobi – Toshkent: "Chinor ENK", 2019.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tabiatni muhofaza qilish siyosati. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
3. Ibrohimov A. O'zbekistonning yovvoyi hayvonlari. – Toshkent: "Fan", 2018.
4. Xalilov R. Ekologiya va hayvonot dunyosi. – Samarqand: "Samarqand nashriyoti", 2020.